

“Yulduzli Tunlar” Romanida Harbiy Sohaga Oid Istorizmlar Muhim Uslubiy Vosita Sifatida

Xudayberanova Dildora¹

Anatatsiya: Maqolada Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” tarixiy romanida qo‘llanilgan harbiy tushunchalarni ifodalovchi istorizmlar, ularning uslubiy xususiyatlari, asardagi ahamiyati va qiymati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: tarixiy sharoit, istorizmlar, amal-mansab nomlari, harbiy atama nomlari.

Tarixiy leksema hozirgi o‘zbek tilida qo‘llanuvchi o‘tmishga oid, iste’moldan chiqib ketgan narsa-hodisani bildiruvchi leksemadir. Tarixiy leksema bildiradigan narsa-hodisa iste’moldan chiqib, o‘tmish voqeligiga aylanganligi sababli, bu leksemaning ko‘philigi hozirgi davr kishisi uchun notanish bo‘lishi mumkin. Tarixiy leksema hozirgi o‘zbek tilida ham zarurat taqozosiga ko‘ra qo‘llaniladi. Xususan, tarixga oid ilmiy asar va darsliklarda, o‘tmish voqealarini aks ettiruvchi badiiy asarlarda bunday leksema cheklanmagan darajada ishlatalishi mumkin. Ayrim polisemantik leksemalarning ba’zi ma’nolari tarixiyashib, bosqqa ma’nosи umumiste’molda saqlanib qolishi mumkin [1]. Tilimizning eski leksik qatlamiga mansub tarixiy so‘zlar, ya’ni istorizmlar o‘zbek tili leksikasining hozirgi kun tarkibida ham narsa-hodisalarning atamalari sifatida uchraydi. Istorizmlar hozirgi kunda tilimizda iste’moldan chiqqan bo‘lsa-da, ammo, tarixiy voqe-a-hodisalar haqidagi ma’lumotlar eslatilgan taqdirda ular ba’zan qo‘llaniladi: *javong’or, hirovul, shiqovul, sarkarda, suvoriy, sipoh, cho’qmor, qalqon, qamal, haram, saroparda, xotuno’dana, jubba, bakovul, munshiy* kabilar [2]. Istorizmlarning, ayniqsa, badiiy nutq tarkibida tutgan o‘rni, vazifasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ular, nafaqat, fikr ifodasi, tarixiy davri jondantirish vositasi, balki nutq egalarining ruhiyati, dunyoqarashi, salohiyati va madaniyati kabi xususiyatlarini ham namoyon qiluvchi muhim omildir [3].

Istorizmlar yozuvchi Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” tarixiy romani matnida ham keng qo‘llanilgan bo‘lib, ular asarda tasvirlangan voqealarda va personajlar nutqida faol qo‘llanilgan, bu esa asarda tasvirlangan davr muhitini yoritishda, asardagi tarixiy koloritni ochib berishda muhim uslubiy vosita bo‘lib xizmat qilgan.

“Yulduzli tunlar” tarixiy romani leksikasida harbiy soha bilan bog‘liq istorizmlar ancha ustuvorlik qiladi. Quyidagi leksik birliklar fikrimizga dalil bo‘la oladi:

G‘ul – qo‘shining markazdagi qismi (buni ba’zan “qalb” ham deyiladi) [4]

➤ *Uning ishongan amiri Abduali Tarxon ertaga bo‘ladigan jangda markazga — g‘ulga tayin bo‘ldi* [6].

Qalamiy – sulh yo‘li bilan olingan yer bo‘lib [4], bu yerlar amri farmon bilan soliq to‘laydigan qalamrav yerlardir.

Sayfiy – yerlar esa hali bo‘ysunmagan, qilich kuchi bilan soliq to‘laydigan yerlardir [6].

Kobul atrofidagi ko‘p joylar hali qalamiy emas, sayfiy [6].

To‘lg‘ama—dushman safining ikki yonidan tartibsiz hujum qilish taktikasi [4].

Naryoqda yov qo‘shinini o‘rab, chulg‘ab, to‘lg‘ama usulini xon aytganday amalga oshirayotgan sultonlar mingga yaqin yigitlari bilan Bobur turgan tepalikka etib bordilar [6].

Masof – saf tortib jang qilish [4]; jang maydoni, janggoh [5].

Masof urush – ochiq joyda yuzma-yuz olishish [6].

Shundan sal oldin Shayboniyxon Boburga maktub yo‘llab, uni masof urushga chaqirgan [6].

Navkar – jangchi yigit [4].

O‘ntacha qo‘rchi navkarlarni to‘riq qashqa ot mingan Tohir boshqarib bormoqda edi [6].

G‘oziy – islom dinida bo‘lmaganlar bilan urush qilib, g‘alaba qozongan [4].

Bobur vatandoshlarining mehmondo‘stlik tuyg‘usini uyg‘otish uchun shu kuniyoq

Samarqandning maydon va ko‘chalariga jarchichiqartirib: «Shoh Ismoilning

g‘oziylari bizning mo‘tabar mehmonlarimizdandir!» deb e‘lon qildirdi [6].

Qama – qamal qilmoq, muhosara qilmoq [5]

¹ Urganch davlat universiteti Filologiya fakulteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasи o‘qituvchisi

Agar biz shaharni yetti oy **qamalqilmasak**, bu baxtsizlik bo 'lmasligi mumkin edi-ku! [6]

Jangdovul – soqchi, qo'riqchi [4].

Jangdovullar bu xabarlarining hammasini Shayboniyxonga allaqachon etkazgan edilar [6].

Sipohiylik – askarlik, harbiylik, sipohilik [5].

➤ Agar shu gal ham tirik qolsam, **sipohiylikni** bas qillardim-da. [6]

Shamshir – qilich [5].

*Ularga buni so 'z bilan emas, faqat **shamshir** bilan uqtirish mumkin! [6]*

Cherik – lashkar, qo'shin [5]

*Bu yerdan **cherik** tortib bormoqqa so 'z berganmiz [6].*

Nayza – nayza, sinon [5].

Nayza Tohirning dubulg'asiga yonlama tegib sirg 'alib o 'tdi-yu, darvoza yog 'ochiga qadaldi [6].

Yog'iy – yov, dushman, g'anim [5].

*Chunki **yog'iy** ko 'prikning yongan joyini tuzatmaguncha ustiga cherik chiqarmas edi [6].*

Xossa tobin – maxsus askar to'dasi [4].

*Agar qochgan bo 'lsa **xossa tobindan** quvg 'inchi yuborgaymiz [6].*

Xandaq – shahar yoki qal'ani yovdan muhofaza qilish maqsadida qazilgan chuqurlik [5].

*U yeqda fil o 'tolmaydigan chuqur **xandaqlar** qazilgan, endi ba'zi joylarga shox-shabba bosib, ihota yasashmoqda edi [6].*

To'ra – urushda oldinga qo'yib, orqasida turib o'q otadigan qalqon[4]ning bir turi. Otliqlarning qalqonidan kattaroq bo'ladi [6].

*Boburning qo 'shinlari orasida **to'ra** ko 'targan, dastasi uzun nayzalar va oyboltalar bilan qurollangan piyodalar ham ko 'p edi [6].*

Sipohiy – askar, amaldor [4].

*Asli dehlilik **sipohiylardan** bo 'lgan Hindubek Ibrohim Lodi bilan kelisholmay bundan yetti yil oldin Kobulga borgan va Boburning xizmatiga kirgan edi [6].*

Muhoraba – jang [5].

Muhosara – qamal, o'rab olish, qurshov [5].

*Agar Ibrohim Lodi Dehli yoki Agraga yetib, bu qal'alarni bekitsa, **muhoriba-yu muhosara** qaytatdan boshlanur, — dedi Bobur Qosimtoy mirzoga [6].*

Kungura – harbiy istehkom, qo'rg'on, okop devoridan miltiq va boshqa qurollarni chiqarib otish uchun qilingan tuyrukchalar [5].

Kungura va shinaklar bo 'lmasa, devor ustidagi odamning qorasi pastdan ko 'rinib qolishi mumkin edi [6].

Ilg'or – qo'shining oldingi safi [4].

*O'q hech kimga tegmagan bo 'lsa ham, xon shaxsan o 'zi jangga qo 'l urganini ko 'rgan navkarlar avvalgidan ham qattiqroq qichqirishib, yov **ilg'orini** bitta qo 'ymay qirib tashladilar [6].*

Barqzan – chaqmoq chaqib, miltiqning piltasini yondiradigan odam [6].

*Hamma piyodalar, to 'pchilar, zarbzan va **barqzanlar** buyruqni bajarishga hozirlandilar [6].*

Jiba / jeba – metaldan yasalgan jang kiyimi, sovut [4].

*Yelkasi va ko 'kragini yopib turgan **jibaning** temiri oftobda yiltirardi [6].*

Dubulg'a / duvulg'a – urushda kiyiladigan bosh kiyim [4].

*Nayza Tohirning **dubulg'**asiga yonlama tegib sirg 'alib o 'tdi-yu, darvoza yog 'ochiga qadaldi [6].*

Savdar – xos soqchi, xos xizmatkor [6].

*Mulla Fazliddin Xonzoda beginning suratini chizish uchun u bilan tillakori ko 'shkda pinhon uchrashganda buni zimdan ko 'rib qolgan kanizlar yoki **savdarlar** bo 'lsa, Ahmad Tanbal shuning bir chetini eshitib, haligi hamyonni ko 'tarib kelganmikin? [6]*

Moli amon – urushda to’lanadigan tovon [6].

Boshqa bir yigit bo ‘xchani titkilab, undan bir juft atlas topdi-da, ponsodga uzatib:

Moli amon! — dedi [6]

Mahbus – hibsga olingan, qamoqdagi odam [5].

*Qo ‘l-oyoqlariga kishan solingan, kiyimlari yirtiq **mahbuslar** Samarcandning Registon maydonida sovuqdan qaltirab, shahar qozisininghukmini tinglaydilar [6].*

Mashvarat – harbiy kengash [5].

*Chaxcharon degan joyda Bobur beklarni **mashvaratga** to ‘pladi [6].*

Xulosa qilib aytganda, keltirilgan misollardagi harbiy sohaga oid istorizmlar asar matniga tarixiy bo‘yoqlarni bera olganligi bilan ahamiyatlidir. Yuqorida keltirilgan istorizmlar “Yulduzli tunlar” tarixiy romanida faol qo‘llanilgan bo‘lib, asar voqealari tasvirlangan davr va ijtimoiy hayotning haqqoniy ifodasini ko‘rsatishga xizmat qilgan. Yozuvchi o’sha davrga xos so‘zlar, ya’ni istorizmlardan o‘z o‘rnida foydalanib, tarixiy davr hayot haqiqatini yorqin aks ettirishga erishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiya, 2009. 121 b.
2. Omonturdiyev A., Raimnazarova N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Termiz – 2010. 126 b.
3. Xudoyberdiyeva N.A. “Navoiy” romanida dialogning ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Toshkent – 2014. 59 b.
4. “Бобурнома” учун қисқача изоҳли лугат. “Андижон нашриёт-матбаа” ОАЖ. 2008
5. Дадабоев X. Тарихий ҳарбий терминлар лугати. Тошкент. 2003.
6. Пиримкул Қодиров. Юлдузли тунлар. Тошкент. Шарқ. 1999